



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 2 mart, № 46 (8669)

Shanba

Saytimga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



HAYOTIY TASHABBUSLAR INSON QADRINI ULUG'LASH, XALQ FAROVONLIGINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-fevral — 1-mart kunlari Xorazm viloyatida bo'ldi.



Davlatimiz rahbari tashrifining ikkinchi kuni Urganch shahrida Xorazm viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha galdagi vazifalar muhokamasi yuzasidan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zining avvalida yurtimizda inson qadrini ulug'lash, aholiga munosib sharoitlar yaratish, bandlikni ta'minlash uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilayotganini ta'kidladi.

Xususan, oxirgi 7 yilda Xorazmda 600 mingta ish o'rni yaratilgan. Bugun viloyat yalpi mahsuloti hajmi 37 trillion so'mga, aholi jon boshiga 19 million so'mga yetgan. Shu bilan birga, tobora o'zgarib borayotgan zamon, odamlarning talab va istaklari yangi-yangi vazifalar qo'ymoqda. Yig'ilishda shu boradagi chora-tadbirlar, viloyatdagi xazinalarni ishga solish bo'yicha yangi imkoniyatlar belgilab olindi.

Xorazmda kichik va o'rta biznesni yanada qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli shartlarda 100 million dollar ajratilishi ma'lum qilindi. Buning hisobidan 5 ming 500 tadbirkorga ko'mak berib, 50 ming doimiy ish o'rni tashkil etish mumkinligi aytiladi.

Iqtisodiyotdagi asosiy vazifalardan biri — viloyatda sanoatni rivojlantirish. Buning uchun eng zarur omillar davlat tomonidan hal etib berilmoqda.

Kuni kecha Amudaryo ustida kuniga 12 mingta avtomobil, 24 ta poyezdni o'tkazish quvvatiga ega ulkan ko'priki ochildi. Bu transport aloqalarini yaxshilab, yuk tashish xarajatlarini kamaytirib, biznes va xizmatlar rivojiga qo'shimcha turki beradi.

Sanoat uchun barqaror energiya manbalari ham zarur. Shu maqsadda Tuproqqal'a tumanida Fransiyaning "Voltaia" kompaniyasi bilan hamkorlikda 100 megavattli quyosh elektr stansiyasi

qurilishi boshlandi. U yil yakunigacha ishga tushadi.

Shuningdek, Xorazmda qiymati 10 milliard dollarlik yirik gaz-kimy o mahmuasini barpo qilish bo'yicha ilg'or xorijiy kompaniyalar bilan muzokara olib borilmoqda. Bu loyiha ishga tushsa, 3 mingta ish o'rni yaratiladi, yiliga 2,5 million tonna yuqori qo'shilgan qiymatli polimerlar ishlab chiqariladi.

Sanoat loyihalarini qo'llab-quvvatlash va jadallashtirish choralarini belgilandi. Qayd etilganidek, Xorazmga Sanoatni rivojlantirish jamg'armasidan 100 million dollar yo'naltiriladi.

Biznesni rivojlantirish banki tomonidan kichik va o'rta sanoat loyihalariga 1,5 milliard so'mgacha 18 foizdan 7 yil muddatga kreditlar beriladi.

Bundan tashqari, 1-apreldan boshlab import uskunalari, ehtiyot qism va xomashyo 5 yilga bojxona to'lovidan ozod qilinadi, qo'shilgan qiymat solig'ini 180 kunga qechiktirib to'lashga ruxsat beriladi. Mahalliyashtirish loyihalariga olingan kredit foizining 10 foiz bandi qoplab beriladi.

Davlat mulki va yer uchastkalarini xususiyashtirishda 5 yil ichida bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratiladi. Iqtisodiy va sanoat zonalarida olgan majburiyatini bajargan tadbirkorlar yer va binoni xususiyashtirishi mumkin bo'ladi. Eksportchilarga boshqa viloyatdan xomashyo yetkazib berish uchun yo'li xarajatlarining 50 foizi qoplanadi.

2020-yilda uchta bank ishtirokida tuzilgan investitsiya kompaniyasi transformatsiya qilinib, unga tadbirkorlarga 30 foizgacha ulushdor bo'lib kirish vakolati beriladi.

"Hazorasp erkin" iqtisodiy zonasidan samarali foydalanib, sanoat loyihalarini joylashtirish, Urganch tumanida Texnopark tashkil qilish vazifasi qo'yildi.

"Damas" va "Labo" avtomobillari hamda ularning ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, kalava ipni qayta ishlash darajasini 60 foizga yetkazish, farmatsevtika mahsulotlarini ko'paytirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tildi.

Umuman, yil yakunigacha viloyatga 1,5 milliard dollar sarmoya, shundan 1 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelib, 600 million dollar eksportni ta'minlash mumkinligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Buning uchun 11,5 trillion so'm kredit yo'naltiriladi, har bir tuman va shaharni kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Xorazmda Xitoy tajribasi asosida "uy sanoati" rivojlantiriladi. Masalan, Bog'ot, Yangiariq, Yangibozor, Qo'shko'pir hamda Urganch tumanlarida jun va pillani qayta ishlash, Hazorasp, Xiva, Tuproqqal'a va Xonqada gilam to'qish ommalashgan.

Bu yo'nalishtirish qo'llab-quvvatlanib, ipakchilik va gilamchilik kooperatsiyalari tashkil qilinadi. Xonadonlarda ixcham uskunalar o'rnatish uchun 100 million so'mgacha garovsiz kredit ajratiladi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida bu yil 5 mingta xonadonga intensiv usulda baliq boqish, 4 ming 400 ta xonadonga tikuvchilik, parranda, chorva, asalari va bog'dorchilik bo'yicha moliyaviy ko'mak beriladi.

Sayyohlarga bir yil davomida cheklovsiz Xorazmga kirish uchun "O'zbekiston — mening ikkinchi uyim" viza tizimi joriy qilinadi. Urganch shahrida "Lazgi" va "Avesto" muzeyi tashkil etiladi. Mehmonxona va dam olish maskanlari

qurish, mavjud o'rnlarni ko'paytirish uchun imtiyozli kreditlar beriladi.

Bu orqali Xorazmga xorijiy turistlar oqimini 1 millionga, mahalliy sayyohlarni 4 millionga yetkazib, 20 ming ish o'rni yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.

Xizmatlar sohasi rivojlanishi uchun transport infratuzilmasini yaxshilash zarur. Shu bois Urganch va mamlakatimizning boshqa shaharlariga aviachipta narxini arzon qilish uchun 30 milliard so'm subsidiya beriladi. Aviaqatnovlar ko'paytiriladi.

Urganch — Xiva yo'nalishida trolleybus qatnovining oraliq vaqti qisqaradi, Urganchdan Xiva va Xonqaga elektrobus qatnovi qo'yiladi.

Yig'ilishda qishloq va suv xo'jaligidagi vazifalar ham ko'rsatib o'tildi. Xitoy va boshqa davlatlardan sho'r tuproqqa chidamli paxta navlarini olib kelib, yetishtirish zarurligi ta'kidlandi. Urganch shahrida ekin urug'larini sertifikatlash laboratoriyasi, har bir tumanda 40 tadan kichik sovitkichli ombor tashkil qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Sholichilikda ham ilmiy yondashuvlarni joriy etish vaqti kelgan. Bu borada Filippindan olib kelingan sho'rqa chidamli navlarni Xorazm sharoitiga moslashtirish zarurligi aytiladi. Sholichilikda hosildorlikni 150 sentnerga chiqargan dehqonlarga mahsulotning yarmini eksport qilishga ruxsat berish taklifi bildirildi.

Chorvachilik, parrandachilik, baliqchilikni kengaytirishga ham yangi imkoniyatlar belgilandi.

Toshsoqa kanalini tiklash loyihasining 2-bosqichi, kanallarni betonlash ishlarining borishi ko'rib chiqildi. 11 ming gektarda suv tejovchi texnologiya joriy qilish, 42

ming gektarni lazerli tekislash, nasos stansiyalarini texnologik yangilash topshiriqlari berildi.

Uy-joy va mahalla infratuzilmasini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bu yil 119 ta ko'p qavatli uy qurilib, 3,5 mingta oilaning yashash sharoiti yaxshilanadi. Hazorasp, Shovot va Urganch tumanlarida "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etiladi.

Elektr tarmoqlari, podstantsiya va transformatorlarni yangilash bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqiladi. Viloyatdagi 233 kilometr yo'l ta'mirlanadi. 322 ta mahallada ichki yo'llar yaxshilanadi.

Xorazmdagi oliy ta'lim muassasalarida xorijiy dasturlar joriy qilinib, talabalarning xalqaro kvalifikatsiya olishi ta'minlanadi. Shifoxona va poliklinikalarda takrorlanadigan vazifalar maqbulashtiriladi. Eshitishda nuqsoni bor 500 nafar bola koxlear apparati, yana 2 ming nafari eshitish moslamasi bilan ta'minlanadi.

Umuman, yig'ilishda belgilangan chora-tadbirlarga 1,1 milliard dollar va 10 trillion so'm yo'naltirilishi ta'kidlandi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyini borib ko'rdi.

Ta'lim muassasasi 2023/2024 o'quv yilidan faoliyat boshlagan. 300 o'rinni zamonaviy binoda yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Ular bu yerda aniq fanlar yo'nalishida ikki yil ta'lim oladi.

O'quv xonalari eng so'nggi rusumdagi multimedia va kommunikatsiya vositalari bilan jihozlangan. Litsey axborot-resurs markazida 7 mingdan ortiq o'quv va badiiy kitoblar, 11 mingdan ziyod elektron adabiyotlar bor. U viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari hamda Alisher Navoiy

nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tarmog'iga ulangan.

Shuningdek, bu yerda Jaloliddin Manguberdi muzeyi, yopiq turdagi sportzal hamda ochiq maydondagi sport majmuasi, saf maydoni, oshxona va yotoqxona mavjud.

O'quvchilar darsdan tashqari o'ndan ortiq fan, axborot texnologiyalari, ijodiy to'garaklar hamda sport mashg'ulotlarida ishtirok etadi. Bepul kiyim-kechak, to'rt mahal issiq ovqat bilan ta'minlanadi.

Davlatimiz rahbari muassasa hamda bu yerdagi ta'lim jarayonlari bilan tanishdi. O'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdi. Jaloliddin Manguberding vatanparvarligi, jasorati yosh avlod uchun ibrat ekanligi ta'kidlandi.

Bu yerda aniq fanlar o'qitilishi yaxshi. Shu bilan birga, dars jarayonlarida vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, qadriyatlarimizni ham o'rgatish lozim. Shunday bo'lishi kerakki, milliy ruh va g'urur yoshlarning eng kuchli quroli bo'lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Harbiy-jangovar qudrat, yuksak ma'naviy salohiyat yurt himoyachilarining muhim tayanchi ekaniga urg'u berildi.

Litsey Urganch davlat universiteti hamda Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti bilan hamkorlik o'rnatgan. Shuningdek, Urganch shahridagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, sport musobaqalari o'tkazib kelinmoqda. Bu tashabbusni boshqa maktablar bilan ham keng ko'lamda tashkil etish rejalashtirilgan.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi yakunlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O'zbekiston Respublikasining

QONUNI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 15-dekabrda
qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 9-fevralda
ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modd. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) faoliyatini tartibga solishdan iborat.

2-modd. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) (bundan buyon matnda Bola huquqlari bo'yicha vakil deb yuritiladi) mansabdor shaxs bo'lib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

(Davomi 2, 3-betlarda).



Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

BUNYODKORLIK TUYG'USI BILAN YASHASH ZAVQI



Ko'hna va hamisha navqiron Xorazm diyori betakror sharqona ruhi va qiyofasi, boy tarixi, bu yerda saqlanib qolgan noyob, har qanday odamni hayratga soladigan obidalar bilan sayyoramizning turli o'lkalarida ma'lumu mashhurdir. Bu zaminda tarixi ming yillarga borib taqaladigan obidalarni kelajak avlodga bus-butun yetkazish, asl holatini tiklash va bu orqali mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Va ayni chog'da, bunga urg'un holda olib borilayotgan xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish, yurtni obod qilishdek teng ko'lamli ezuq ishlar hudud hayotini tong ma'noda o'zgartirib, voha jamolini yangicha ruh va yangi qiyofada dunyoga ko'z-ko'z qilmoqda. Asosiysi, Prezidentimiz tashabbusi bilan bu yerda uddalanayotgan bunday ulkan hajmdagi ishlarga kattayu kichik o'zini daxldor bilib, mehnat qilmoqda.



Binobarin, qishning izg'irini kunlari o'z o'rmini bahorga bo'shatib berayotgan, dalayu dashtda ko'klam nasimlari esayotgan ayni kunlarda Xorazmda nafaqat tabiat uyg'unmoqda, balki voha ahli qalbid ham o'zgacha bir surur, ko'tarinki kayfiyat hukmron.

Buning boisi davlatimiz rahbarining 29-fevral — 1-mart kunlari Xorazmga tashrifi, xalq bilan samimiy muloqot qilgani, odamlarning yashash, tumush sharoitlarini o'rgangani, hududda yangi-yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha amaliy say-harakatlarga start berilgani tufaylidir.



Oʻzbekiston Respublikasining QONUNI

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari boʻyicha vakili (Bolalar ombudsmani) toʻgʻrisida

(Davomi. Boshlanishi 1, 2-bettarda).

Bolaning manfaatlarini koʻzlab shikoyatlar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda uning qonuniy vakillari tomonidan berilishi mumkin.

Bolalar oʻz huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi masalalari yuzasidan shikoyat berishi mumkin. Bola huquqlari boʻyicha vakil bolalarning shikoyatlarini koʻrib chiqishi shart.

Bola toʻliq muomala layoqatiga ega boʻlmaganligi sababli uning shikoyatini koʻrib chiqmasdan qoldirishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Bola huquqlari boʻyicha vakil bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi toʻgʻrisida axborot mavjud boʻlganda yoxud himoyaning huquqiy vositalaridan mustaqil ravishda foydalanishga layoqatsiz shaxslarni himoya qilish uchun oʻz tashabbusi bilan faktlar tekshiruvini oʻtkazishga haqlidir.

Shikoyat boʻyicha ilgari qabul qilingan mavjud qarorlar yoki ularning koʻchirma nusxalari, shuningdek shikoyatni koʻrib chiqish uchun zarur boʻlgan boshqa hujjatlar shikoyatga ilova qilinishi mumkin, mazkur hujjatlar qaytarilmaydi, bundan arz qiluvchi ularni qaytarish haqida yozma ariza bergan hollar mustasno.

Arz qiluvchilar va ularning vakillari shikoyatni u koʻrib chiqilguniga qadar va koʻrib chiqilayotgan paytda shikoyat yuzasidan qaror qabul qililguniga qadar yozma yoki elektron shaklda ariza berish yoʻli bilan chaqirib olishi mumkin. Shikoyatni chaqirib olish toʻgʻrisidagi ariza qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish yuzasidan Bola huquqlari boʻyicha vakil tomonidan choralar koʻrilishini istisno etmaydi.

Bola huquqlari boʻyicha vakilga berilgan shikoyat uchun davlat boji undirilmaydi.

27-modd. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam koʻrsatish markazlarida hamda ixtisoslashtirilgan oʻquv-tarbiya muassasalarida, tergov hibsonalarida va tergov hibsonalarida va tarbiya koloniyalarida turgan bolalar yozma shakldagi murojaatlarni (xatlar va telegrammalarni) ularning soni cheklanmagan holda Bola huquqlari boʻyicha vakilining nomiga yuborish huquqiga ega. Bola huquqlari boʻyicha vakil nomiga yuboriladigan murojaatlar senzura qilinmaydi.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam koʻrsatish markazlarida hamda ixtisoslashtirilgan oʻquv-tarbiya muassasalarida, tergov hibsonalarida va tarbiya koloniyalarining maʼmuriyati bolaning murojaatini Bola huquqlari boʻyicha vakilga yigirma toʻrt soatdan kechiktirmay, muhrlangan tarzda yuboradi, telegrammalarni esa darhol yuboradi. Bola huquqlari boʻyicha vakilning javobi koʻzdan kechirilishi mumkin emas va arz qiluvchiga zudlik bilan yetkazib beriladi.

Bola huquqlari boʻyicha vakil shikoyatlar koʻrib chiqilayotganda, shuningdek bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini oʻz tashabbusi bilan tekshirayotganda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam koʻrsatish markazlariga hamda ixtisoslashtirilgan oʻquv-tarbiya muassasalariga, tergov hibsonalariga va tarbiya koloniyalariga moneliksiz kirish huquqiga ega. Mazkur muassasalarning maʼmuriyati Bola huquqlari boʻyicha vakilning xavfsizligini taʼminlaydi.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam koʻrsatish markazlarining hamda ixtisoslashtirilgan oʻquv-tarbiya muassasalarining, tergov hibsonalarining va tarbiya koloniyalarining maʼmuriyati Bola huquqlari boʻyicha vakilga u yerda turgan bola bilan moneliksiz va xoli uchrashish hamda suhbatlashish uchun zarur shart-sharoitlarni taʼminlashi shart, uchrashuvlar va suhbatlar ushbu muassasalar xodimlari ularni koʻrib turadigan, lekin eshitmaydigan sharoitlarda xoli oʻtkaziladi.

28-modd. Bola huquqlari boʻyicha vakilning shikoyatlarni koʻrib chiqish, shuningdek bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini oʻz tashabbusi bilan tekshirish chogʻidagi huquqlari

Bola huquqlari boʻyicha vakil shikoyatlarni koʻrib chiqish, shuningdek bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini oʻz tashabbusi bilan tekshirish chogʻida quyidagi huquqlarga ega:

- aniqlanishi lozim boʻlgan holatlarni tekshirishda koʻmaklashishni soʻrab tashkilotlarga va mansabdor shaxslarga murojaat qilish;
- aniqlanishi lozim boʻlgan holatlarni tekshirish uchun tashkilotlarning vakillarini va mansabdor shaxslarni taklif etishi. Tekshirishni harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berilgan tashkilotga yoki mansabdor shaxsga topshirish mumkin emas;
- tashkilotlarga va mansabdor shaxslar huzuriga moneliksiz kirish;
- tashkilotlar va mansabdor shaxslardan hujjatlarni, materiallarni va boshqa maʼlumotlarni soʻrash hamda olish;
- mansabdor shaxslardan tushuntirishlar olish;
- aniqlanishi lozim boʻlgan masalalar yuzasidan tashkilotlarga va mutaxassislarga xulosalar tayyorlashni topshirish;
- bola huquqlariga daxldor boʻlgan masalalar yuzasidan tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan oʻtkazilayotgan tekshirishlarda ishtirok etish;
- ushlab turilgan, tergov hibsonasida saqlanayotgan voyaga yetmagan

BUNYODKORLIK TUGʻUSI BILAN YASHASH ZAVQI



1

Yurtboshimiz belgilab bergan vazifalar, taklif va tashabbuslari viloyat ahlini yangi maralar sari ruhlantirib, islohotlarga, erangni kunga ishonchini yanada mustahkamlayotir. Ishga tushirilayotgan yangi ishlab chiqarish quvvatlari, barpo etilayotgan zamonaviy binolar, ravon yoʻllar va koʻpriklar, taʼlim, tibbiyot, madaniyat hamda sport maskanlarida yangilanayotgan Xorazmning bugungi qiyofasi aqs etmoqda.

Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qoʻshma korxonalar, zamonaviy ishlab chiqarish klasterlari, xalqaro talabarga mos turizm infratuzilmasi, faol urbanizatsiya jarayoni tufayli shahar qiyofasiga kirayotgan qishloqlar jamoli — bularning barchasi mamlakatimizning olis hududlaridan biri boʻlgan Xorazm viloyatida soʻnggi yillarda yuz berayotgan oʻzgarishlarning oʻziga xos manzaralaridir.

Vatanga sadoqatning yorqin timsoli

“...dunyodagi eng ulkan qahramonlik — bu Vatani mustaqilligi va ozodligi yoʻlida koʻrsatilgan mardlik va jasoratdir. Bunday qahramonlik aslo unutilmaydi, hamisha xalq

qalbidayashaydi”, degan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-avgust kuni Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi haykalining ochilishiga bagʻishlangan tantanali marosimida.

Bugun Xorazmda qadam qoʻygan mehmon borki, ushbu tabarruk maskan — Urganch shahridagi Prezidentimiz tashabbusi bilan bunyod etilgan Jaloliddin Manguberdi haykalini ziyorat qilishdan boshlaydi. Vatani ozodligi yoʻlida jonini fido qilgan dovyurak kurashchi, chin maʼnodagi vatanparvar, milliy qahramon, jahon xalqlari tarixida oʻchmas iz qoldirgan buyuk sarkarda, xorazmshohlar davlatining soʻnggi hukmdori Jaloliddin Manguberdining jasorati ana shunday eʼzozu eʼtibordir.

Oʻtgan yil viloyatda Jaloliddin Manguberdi nomi bilan ataluvchi harbiy-akademik litseyning ochilishi ulugʻ sarkardaning jangovar anʼanalarini davom ettirish, milliy arimiyamiz uchun yetuk malakali kadrlarni tayyorlash yoʻlidagi yana bir amaliy qadam boʻldi.

— Bu dargohga Jaloliddin Manguberdi bobomizning nomi berilishi bejiz emas, albatta, — deydi mehnat faxriysi Rayimboy Sherjonov. — Millatimiz faxri boʻlgan jasur sarkardaning hayoti, tariximizdagi oʻchmas jasorati yosh avlod, Vatani himoyachilari uchun oʻziga xos ibrat namunasi boʻlib, ularni mardlik va matonatga chorlab turadi. Bu maskanda boʻlajak harbiylar Jaloliddin Manguberdining jang strategiyasi va taktikasi, eng muhimi, undagi vatanparvarlik va yurtga sadoqatni oʻrganadilar.

Buyuk sarkarda va Prezidentimizning vohaga tashrifida oʻziga xos bogʻliqlik bor. Chunki Jaloliddin Manguberdi saman oti bilan Amudaryodan sakrab oʻtgan. Bugun esa ana shu daryoga tarixiy koʻrik solindi.

Shoir Abdulla Oripov yozganidek:

Jaloliddin samani boʻlib Sakrab oʻtding Amudaryodan. Sensan oʻshal samanim manim, Oʻzbekiston, Vatanim manim.

Mamlakatimiz Prezidentining 2023-yil 12-iyunda qabul qilingan “Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litsey faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori asosida ochilgan mazkur taʼlim maskani boʻlgʻusi harbiylarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyati va jismoniy tayyorgarligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. 300 oʻrinli mazkur oʻquv maskanini qurish va jihozlash uchun budjetdan 53,5 mlrd. soʻm mablagʻ sarflandi.

Taraqqiyotning oydin yoʻllari

Dunyo tamaddunining bugungi bosqichida yurt taraqqiyoti va farovonlikka erishishning asosiy yoʻnalishlari zamon evrilishlariga hamohang oʻzgaradi. Raqamlashtirish jarayoni hayotimizning barcha jabhasini qamrab olgan bugungi davrda faqat ilm, maʼrifat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali dunyo ayvonida oʻz mavqeimizni mustahkamlab, munosib oʻlmimizni egallashimiz mumkin. Oʻnli sanoq sistemasini kashf etib, insoniyatga raqamlar toʻgʻrisida ilk tushunchalarni bergan koʻhna Xorazm zaminidagi bugungi yangilanish va tub oʻzgarishlar buyuk ajdodlarimiz anʼanalari davomiyligidan darak beradi.

Dunyoni ilm va tafakkur orqali zabt etgan Muhammad al-Xorazmiy kashf etgan algoritmi insoniyat aqlu idrokini hayratda qoldirayotgan kibernetika, kosmonavtika va kompyuter tizimiga asos boʻlib xizmat qilmoqda. Ana shunday buyuk daholar vorislari yashayotgan zamin bugungi kunda dunyoda raqamli texnologiyalar borasida oʻz mavqegini egallashga maʼnan haqlidir.

— Oʻquv markazimizda veb-dasturlash, grafik dizayn, robototexnika, videomontaj kabi 16 ta yoʻnalishda oʻqitish imkoniyati mavjud, — deydi “DATA UNION” MChJ rahbari Shahzod Sobirov. — Markazimiz faoliyatini kengaytirish

uchun 2022-2023-yillarda 5,5 milliard soʻm miqdorida grant mablagʻlari ajratildi. Bugungacha 5,3 mingdan ziyod yoshlar oʻquv kurslarimizni muvaffaqiyatli yakunlab, IT sohasida faoliyat olib bormoqda. Joriy yilning sentabr oyida qiymati 25 milliard soʻm boʻlgan xalqaro IT maktabini ochishni rejalashtirganmiz. Bu yurtimizda yoshlarga, biznes rivojiga keng imkoniyatlar yaratib berilayotganining amaldagi isbotidir.

Mamlakatimiz Prezidenti oʻtgan yilning iyun oyida saylovoldi dasturi bilan tashrif chogʻida istiqbolida viloyatning “tashrif qogʻozi” IT sohasi boʻlishini taʼkidlab, Xorazmda 2024-yildan boshlab “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasi amalga oshirilishini bildirgan edi. Bu tizim “maktab — oliygoʻh — IT kompaniyasi”dan iborat yaxlit IT taʼlim va xizmatlar janjirini yaratishi bilan ahamiyatlidir.

— Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasi kadrlar tayyorlashning noyob dasturi boʻlib, bu orqali yuqori sinf oʻquvchilarni hech qanday oʻquv markazlari va oliy taʼlim diplomisiz ham xalqaro IT bozoriga tayyor mutaxassis sifatida chiqarish maqsad qilingan, — deydi Raqamli texnologiyalar vazirligining Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi boshligʻi Zafar Karimov. — Raqamli texnologiyalar, Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirliklari hamda Xorazm viloyati hokimligi hamkorligida amalga oshirilayotgan loyihada shu yil mobaynida Xorazmda 4 ming 200 nafar oʻquvchini qamrab olgan 320 ta maxsus IT-guruh tashkil etiladi. Loyiha qatnashchilari maktabni bitirgunlarga qadar darsdan tashqari vaqtda malakali mentorlardan dasturlash sohalari va ingliz tilini beputi oʻrganadi.

“Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasi viloyatning har bir tuman markazida faoliyat koʻrsatayotgan Raqamli texnologiyalar oʻquv markazlarida amalga oshiriladi. Loyiha oʻquvchi-yoshlarning dasturlash borasida bilimlarini yanada mustahkamlash, axborot texnologiyalari va xorijiy tillar boʻyicha xalqaro sertifikat olish darajasida tayyorlash hamda xalqaro IT bozoriga yoʻnaltirishni koʻzda tutadi.



Hasan PAYDOYEV olgan suratlardir.

Islohotlarning amaldagi samarasi

Mabodo yoʻlingiz tushib, bugun Xorazm viloyatining Istiqlol mahallasiga kelsangiz, bu yerda yillar davomida bajarilgan ishlar qisqa kunlarda roʻyobga chiqarilganiga guvoh boʻlasiz. Yangilanishlarga yuz tutayotgan Vatanimizga mos ravishda bu yerda “Obod xonadon — obod koʻcha — obod mahalla” mezonlari asosida keng koʻlamda qurilish va obodonlashtirish, aholi bandligini taʼminlash hamda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash yoʻnalishida qator tadbirlar amalga oshirildi. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha mahalla hududiga yangi transformatorlar oʻrnatilib, elektar taʼminoti yaxshilandi, ichki yoʻllarga asfalt yotqizildi, piyodalar yurish yoʻlakchalari qurildi.

— Prezidentimiz mahallalardagi oʻzgarishlar bilan tanishib, bu yoʻnalishdagi ishlarni yanada rivojlantirish boʻyicha qator takliflar bildirdi, — deydi mehnat faxriysi Otanazar Pinazarov. — Mahallamizda bu kabi yangilanishlar yanada yuqori surʼatlarda davom etadi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan ushbu loyiha doirasida obodlik har bir mahalla, har bir koʻcha, har bir xonadonga kirib boradi.

Odilbek ODAMBOYEV (“Xalq soʻzi”).

Muloqot

AMALIY ALOQALAR
YANADA KUCHAYTIRILADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Xaxa Imnadzeni qabul qildi.

Shu munosabat bilan O'zbekistonning BMT va uning ixtisoslashtirilgan idoralari, jumladan, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi o'rtasidagi hamkorlikning hozirgi holati muhokama qilindi hamda istiqboldagi rejalar ko'rib chiqildi.

E'tirof etilganidek, O'zbekistonning ushbu nufuzli tuzilma bilan hamkorligi mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, terrorizmga qarshi kurashish, tinchlikni mustahkamlashda ayollar hamda yoshlar salohiyatidan unumli foydalanish, nizolarning oldini olish va hal etish, shuningdek, transchegaraviy suv hamda energiya resurslaridan birgalikda va oqilona foydalanish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Uchrashuvda O'zbekiston BMT doirasida xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan, barqarorlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilishga amaliy hissa bo'lib qo'shilayotgan tashabbuslarni ilgari surayotgani alohida ta'kidlandi.

Qolaversa, mintaqaviy darajadagi muloqot va hamkorlik jarayonida turli platformalar, shu jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti atigi 3 yil ichida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha dolzarb takliflarni ishlab chiquvchi muhim maydonga aylangani, bu borada markazning o'rni katta bo'layotgani urg'ulab o'tildi. Shu nuqtayi nazardan, yangi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Toshkent shahrida Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqotining doimiy faoliyat yurituvchi kotibiyatini ochish masalasini ko'rib chiqish taklifi ilgari surildi.

Shuningdek, muloqot chog'ida mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlarning salohiyatini ro'yogga chiqarish bilan bog'liq masalalar ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolarining preventiv diplomatiyaning zamonaviy usullari va vositalari haqidagi bilimlarini oshirish bo'yicha samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan fikr almashildi.

Kaxa Imnadze Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining hududda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlari haqida to'xtalarkan, bu borada O'zbekistonning alohida hissasi borligini e'tirof etdi.

Uchrashuv yakunida mintaqaviy tuskdagi bir qator dolzarb masalalar yuzasidan yaqin va konstruktiv hamkorlikni yanada rivojlantirishga kelishib olindi.

“Xalq soʻzi”.

2-mart — O‘zbekiston Respublikasi BMTga a‘zo bo‘lgan kun

BARQAROR RIVOJLANISHGA
QARATILGAN YAQIN HAMKORLIK

Ma'lumki, bundan 32 yil muqaddam, 1992-yilning 2-mart kuni yangi suveren davlat — O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi va jahon hamjamiyatining teng huquqli subyektiga aylandi. Shundan buyon mamlakatimizning mazkur xalqaro tashkilot bilan munosabatlari tobora rivojlanib kelmoqda va bugungi kunda sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi.

BMT xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, davlatlar xalqaro hayoti va hamkorligining barcha yo'nalishida faoliyat ko'rsatadigan betakror, tarixan muhim va universal tashkilotdir.

Mazkur nufuzli tashkilot Toshkent shahrida o'z vakolatxonasiga ega bo'lib, u 1993-yilning 24-oktabrida ochildi. Shuningdek, O'zbekistonda BMTning tarkibiy tuzilmalari, jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Jahon oziq-ovqat tashkiloti, Jahon banki, MAGATE, Taraqqiyot dasturi, Aholishunoslik jamg'armasi, Bolalar jamg'armasi, Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, Gender tenglik, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo'yicha birlashgan dastur vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi so'nggi yetti yilda mutlaqo yangi darajaga ko'tarildi. Birgalikda qariyb 140 ta dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 6 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi, Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trast fondi faoliyat yuritayotir. O'zbekistonda BMT bilan birgalikda global kun tartibiga oid, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, turizmni rivojlantirish, kambag'allikka va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha yirik xalqaro tadbirlar o'tkazilayotganini eslash o'rinni.

Xususan, 2023-yilning sentabrda bo'lib o'tgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiyasi mamlakatimizning BMT bilan yaqin hamkorligiga yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur anjumanda agrar tarmog'ni rivojlantirishdagi nomutanosibliklar, suv resurslarining tanqisligi, qo'shimcha qiymat yaratishning uzun va samarasiz janjirlari, logistikadagi qiyoslar va boshqa shu kabi barqaror rivojlanish uchun asosiy xatarlar qizg'in muhokama etildi. O'zbekiston va FAO o'rtasida 2030-yilga qadar mo'ljallangan yangi hamkorlik dasturiga qishloq xo'jaligini ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilish, agrar sohani raqamlashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan

vositalarini amalga oshirish va agrooziq-ovqat tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shma tadbirlarni kiritishga kelishib olindi.

Oktyabr oyida Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda turizm tarmog'ini isloh qilishda O'zbekistonning strategik hamkoriga aylangan UNWTO bilan "Ipak yo'lida turizm" brendini keng yoyish, jumladan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mamlakatimizda turizm yo'nalishlarini ommalashtirish, malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan dastur va loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'ta muhim kelishuvlarga erishildi. Mamlakatimizda UNWTO

Bosh assambleyasining yubiley sessiyasi o'tkazilishi, uning doirasida Samarqand shahrida Xalqaro turizm akademiyasi va "Ipak yo'li" tematik ofisining ochilishi hamkorlikning muhim amaliy natijalari bo'ldi.

Novabr oyida ham dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlari delegatsiyalari va nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari ishtirokida BMTning Cho'lanish bo'yicha konvensiyasini amalga oshirish qo'mitasining 21-sessiyasi ko'tarinki ruhada o'tkazildi. Ushbu anjumanda BMT Bosh kotibining o'rinbosari, Cho'lanishga qarshi kurash konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiav ishtirok etdi.

Dunyoda kechayotgan hozirgi globallashuv jarayonlari insoniyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, o'zida turli tahdid va xavf-xatarlarni ham namoyon etmoqda. Ana shunday sharoitda davrimizning eng obro'li xalqaro tuzilmasi — BMT bilan tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida samarali hamkorlik qilish xalqimizning tub milliy manfaatlariga to'liq mos keladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "BMT bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rinni tutadi", degan fikri respublikamizning tashqi siyosiy pozitsiyasini izohlab berdi.

Mazkur mustahkam siyosiy-diplomatik pozitsiya davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 23-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida, 2023-yil 19-sentabrda 78-sessiyasida so'zlagan nutqlarida ilgari surilgan global va mintaqaviy ahamiyatga ega tashabbuslarda yana bir bor o'z ifodasini topdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining sessiyalaridagi nutqlarida xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizmni yanada rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa sohalarga doir tashabbuslarni ilgari surdi. Eng muhimi, bu takliflar xalqaro hamjamiyat tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, turizmni rivojlantirish, ekologik muammolar, diniy ekstremizm hamda terrorizmga qarshi kurashish, butun dunyo yoshlari taqdiri va kelajagi, ma'rifati dunyo haqida qayg'urish kabi tashabbus hamda ilg'or g'oyalar shular jumlasidan.

Xususan, davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ilgari surgan tashabbuslar har tomonlama asoslangan, chuqur mushohadaga chorlovchi, butun dunyo, jumladan, mintaqamiz uchun g'oyat muhim hamda yoshlari taqdiri bilan ajralib turdi. BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish va "Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030" dasturini ishlab chiqish ayni kunning dolzarb vazifalari sirasidandir. O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini tashkil qilish, UNESCO shafeligida Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini ochish, 2024-yili O'zbekistonda "Islom — tinchlik va ezigulik dini" mavzuida xalqaro konferensiyasi o'tkazish, "Markaziy Osiyo ilqim muloqoti", BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo'lida hamjihatlik" rezolyutsiyasini qabul qilish kabi muhim tashabbuslari barcha davlatlar bilan keng ko'lamli va uzoq muddatli sheriklikni



chuqurlashtirishga tayyor ekanimizni yana bir bor namoyon etdi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekistonning barqaror rivojlanish borasidagi sa'y-harakatlari ham tashkilot tomonidan e'tirof qilinmoqda. O'tgan yili 15-mart kuni yurtimizda mehmon bo'lgan BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Folker Turk O'zbekistonning bolalar va majburiy mehnatga barham berish, gender tenglikni ilgari surish, sud idoralarining mustaqilligini va qonun ustuvorligini ta'minlash borasidagi muvaffaqiyatlarini yuqori baholadi.

Bugungi kunda O'zbekiston barqaror taraqqiyot sohasida BMT bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha kun tartibida bo'lgan masalalarni amalga oshirish maqsadida hukumat tomonidan 2030-yilgacha davrni qamrab olgan barqaror taraqqiyot sohasidagi milliy maqsad va vazifalar qabul qilindi, 16 milliy maqsad va 125 vazifa tasdiqlandi. Ularning implementatsiyasi bo'yicha "Yo'l xaritasi" qabul qilindi, hukumat huzurida Parlament komissiyasi va Muvofiglashtiruvchi kengash tuzildi. Barqaror taraqqiyot maqsadlarini bajarish bo'yicha Ixtiyoriy milliy shart taqdim etildi. 2021-yilning iyunida Buxoro shahrida Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda "Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda global parlamentlararo hamkorlik" xalqaro forumi tashkilastirildi.

2022-yilning 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi "Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishni

Bugun to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston va BMT o'rtasidagi munosabatlari muhim voqealarga boy bo'lib, barcha yo'nalishda rivojlanib bormoqda. Yaqinda tashkilot Bosh Assambleyasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan "2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili" rezolyutsiyasini bir ovozdan ma'qullagani ham fikrimizning yaqqol dalilidir. Mamlakatimizning BMT doirasida ilgari surgan barcha taklifi, tashabbusi tinchlik, xavfsizlik, inson huquqlarini himoya qilish va barqaror taraqqiyotga erishishni ta'minlashga ulkan amaliy hissa bo'lib qo'shilayotgani xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etilayapti. Mamlakatimiz bundan keyin ham BMT bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirishga sodiq bo'lib qolaveradi.

Sodiq SAFOYEV,
Oliy Majlis Senati Raisingning birinchi o'rinbosari.

Deputatlar — hududlarda

Budjet mablagʻlaridan maqsadli foydalanilyaptimi?

Avval xabar berilganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlaridan iborat ishchi guruh a'zolari hududlarda bo'lib, Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan yig'ilishlarda belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganmoqda.

yetishtirishga ixtisoslashtirilgan issixonalarda bo'ldi.

Muloqotlar chog'ida yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar tufayli keyingi yillarda nafaqat eksport geografiyasi, balki tashqi bozorga chiqarilayotgan mahsulotlar turi va hajmi ham tobora ortib borayotgani aytib o'tildi.

Shundan so'ng deputatlar hududlarda budjet va xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilayotgan mablag'larning to'g'ri hamda samarali sarflanish

holatini o'rganish, bu borada nazorat o'rnatish maqsadida Ellikqal'a tumanidagi "Qirq qiz maxsus qurilish" MChJ tomonidan ochilgan Aqchako'l rekratsion kompleksiga bordi. Mazkur mas'uliyat cheklangan jamiyatga Davlat budjeti tomonidan turizm sohasini rivojlantirish maqsadida mablag' ajratilgan bo'lib, ayni vaqtda qurilish ishlari olib borilmoqda. Deputatlar mas'ullarga rekonstruksiya ishlari sifatli va o'z vaqtida bajarilishi borasida o'z tavsiyalarini berdi.

Murojaatlar
nazoratga olindi

Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlaridan iborat ishchi guruh a'zolari Xorazm viloyatida bo'lib, mahalliy Kengash deputatlari bilan hamkorlikda aholi bilan muloqot qilyapti, ularning yashash sharoitlari bilan tanishmoqda.

Muloqotlar davomida mamlakatni 2024-yilda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha belgilab berilgan vazifalarning mazmun-mohiyati keng tushuntirilgan holda, bu borada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilayapti. Asosiy e'tibor aholi murojaatlari bilan ishlash, ularning muammolarini hal etish, bandlikni ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish kabi bir qator muhim masalalarga qaratilmoqda.

Ana shunday uchrashuvlarning dastlabkisi Urganch shahridagi "Umid" mahalla fuqarolar yig'inida tashkil etildi. Murojaatlardan ma'lum bo'lishicha, "Umid" MFY Amir Temur ko'chasidagi ko'p qavatli uylar oldida bolalar maydonchasi o'rimga tadbirkor tomonidan savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchasi qurilishi rejalashtirilayotgani aholining noroziligi sabab bo'lmoqda. Mazkur qurilish hududdagi ko'p yillik daraxtlar kesilishiga, ekologiyaga zarar yetishiga, qolaversa, yo'llar qisqarishiga ham olib kelishi mumkin.

Ishchi guruh tomonidan viloyatning barcha shahar va tumanlari kesimidagi shu kabi muammolar qayd etilib, mutasaddilar tomonidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi.

Shuningdek, hududlarda kommunal sohani takomillashtirish, xususan, iro organlari faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida mas'ullar binkirtildi. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar monitoringi yuritiladigan bo'ldi.

Bosh muharrir Oʻtkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 342.18 433 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.16 Topshirildi — 00.05 1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahhih S. Islomov.

Xalq soʻzi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi